



UCHINCHI RENESSANS - YOSHLAR NIGOHIDA OLIY TA'LIMDA SIFATLI BILIM OLI SHDAN TALABALARNING MANFAATDORLIGINI OSHIRISH UCHUN O'QUV JARAYONI VA METODIKASINI O'ZGARTIRISH YO'LLARI

Saraev Samandar Rafailovich

University of World Economy and Diplomacy, first year
student,

Email: samansarayev@mail.ru

Annotatsiya:

So'ngi yillarda talim sohasida katta islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, oliy ta'lim muassasalarida ham. Uchinchi renessans davrida olib borilishi mumkin bo'lgan takliflar eski tizim analizidan kelib chiqqan holda ushbu maqolada ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar:

Uchinchi renessans, ta'lim, muamo, yechim, masala, ta'lim tizimi, yangi zamon, yoshlar, o'zgarishlar, talabalar, talab.



I. Ta'limda islohotlar.

So'nggi yillarda ta'lim sohasini yaxshilash bo'yicha ko'plab ishlar olib borilmoqda. Jumladan, kredit-modul tizimi joriy etilishi, o'qituvchilarga e'tibor qaratilishi, oliy ta'lim muassasalariga berilgan kvotalar soni oshirilishi va boshqalar ta'lim tizimimizdagi pozitiv o'zgarishlarga olib kelmoqda. Shunday bo'lsa-da, kuchli ta'lim farovon kelajagimiz garovidir. Shu sabab, biz uni yaxshilash bo'yicha yanada ko'proq harakat qilishimiz va rivojlanishdan to'xtamasligimiz kerak deb o'ylayman.

Bu tanlovda ishtirok etayotganimning sababimaktab va kollejdagi ta'lim olayotgan davrimda men ko'rgan soha kamchiliklari, bugungi kundagi mening nazarimda noto'g'ri bo'lgantizim xatolari bo'yicha olib borgan izlanishlarim, o'quv markazidagi ingliz tili o'qituvchisi sifatidagi faoliyatim, yozgi oromgohlarda va seminar-treninglarda maktab o'quvchilari bilan ishlaganligim va boshqa omillardan kelib chiqib o'z takliflarimni olg'a surmoqchiman.

II. Zamonaviy oliy ta'lim standartlari bizda qay darajada joriy etilgan?

2.1. Ko'nikmalar-zamon talabi.

Chet el ta'lim tizimi va O'zbekistondagi sistemaning farqi juda katta. Eng asosiy farqlardan biri – chet el oliy ta'lim muassasalarining "Soft skills" (oratorlik mahorati, liderlik, jamoa-qurish, taqdimot qilish kabi hayotiy ko'nikmalar)ni rivojlantirishni ko'zlashi va bunga katta e'tibor qaratishidadir. Ya'ni, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari nazariy bilimlarga hamda "Hard skills" (test orqali tekshirish mumkin bo'lgan formulalar, konsepsiyalar va hokazo)gajuda katta e'tibor qaratadi. O'zbekistondagi universitetlarni bitirgandan so'ng ishga kirgan bitiruvchi ko'plab hayotiy ko'nikmalarni boshqatdan o'rganishi kerak bo'ladi. Chunki ishxonada unga aynan

ko'nikmalar ko'proq ast qotadi. Ishchito'g'ri muloqot olib borishi, tanqidiy fikrlashi, kreativ o'ylashiva shu kabi boshqa ko'nikmalar yangi zamon kadrlariga qo'yilgan talab hisoblanadi. Bu bilan, albatta, nazariy fanlarni to'liq olib tashlash kerak degan fikr xato, chunki kadrlar o'z sohasiga doir bilimlarni yaxshi o'rganishlari kerak.

Universitetda bunday ko'nikmalarga qanday ega chiqish mumkin? Albatta dars jarayonida qaysidir darajada bu bilimlarni olamiz, lekin ularni universitet debatlari, tanlovlari, konferensiyalari va boshqa loyihalar orqali rivojlantirish samaraliroq.

Afsuski, bunday tanlovlarda har bitta talaba ham ishtirok etavermaydi. Bunga bir qancha sabablar bo'lishi mumkin. Biri talabaning o'ziga ishonmasligi bo'lsa, yana biri esa bu loyihalarning qanchalik foydali ekanligini ko'ra olmaslikdir.

Mening nazarimda, talabalar o'rtasida maxsus loyihalar rivojiga ko'proq e'tibor berilsa, ular universitet va ustozlar tomonidan qo'llab-quvatlanib, yetarlicha mablag' ajratilib (har bir tanlov uchun faxriy yorliq bilan taqdirlash bilan cheklanib qolmasdan), moddiy qiziqtirish uyg'otilsa, talabalarining takliflarini inobatga olib, yangi loyihalar o'tkazib borilsa, universitet bitiruvchilari keyingi ishda o'z yo'llarini topib va dunyo standartlariga to'g'ri keluvchi mutaxassis bo'lib yetishib chiqishlari mumkin.

2.1. Kredit-modul tizimi. Yangi nommi yoki yangi yondashuv?

O'zbekiston universitetlari birin ketin kredit-modul tizimiga o'tishmoqda. Bizning universitet ham bu tizimdan foydalana boshladi. O'qish boshlanganida, afsuski, deyarli o'zgarishlar sezilmadi. Haligacha ham o'sha majburiy fanlarni o'qimoqdamiz. Bizga o'zimiz uchun fanlarni tanlash huquqi berilishi aytilgan bo'lsa-da, birinchi semestrda bitta ham fan tanlash huquqimiz yo'q. Bu majburiy fanlarni ko'rib o'ylab qoldim. Men, misol uchun, sportchiman. O'zbekiston terma jamoasidagi mashg'ulotlarim meni doim tetik ushlaydi. Nega endi men shu kreditlarimni "Jismoniy tarbiya" fani o'rniga Xalqaro huquq fakultetidagi, men juda qiziqqan, "Xalqaro jinoiy sud" faniga yoki o'zimni fakultetimda menga qiyin bo'lgan "iqtisodiyot" fanidan qo'shimcha soatlarga ishlata olmayman? Menimcha aynan mana shu, kredit-modul sistemasi. Talabaga 240ta kredit beriladi va universitetdan xohlagan kurslari "sotib olib" o'qiladi. Biz yangi tizimga o'tar ekanmiz, bor yo'g'i tizimning nomini o'zgartirib qolmay, talabalarga erkinlik berib rostdan ham mustaqil fikrlashiga va mustaqil qaror qabul qilishiga imkoniyat berilishi kerak deb o'ylayman.

III. Talabalik davriga yorqin ranglar kiritaylik. Kichik muammolar, lekin juda kerakli qulayliklar.

3.1. Talabaning kiyinishi ham nazoratdami?

Universitetda talabalar klassik uslubda kiyinish va bo'yinbog' taqib yurishi majburiy hisoblanadi. Shunday qoida bor ekan, demak bunga mantiqiy sabab bo'lishi kerak. "Bu nima uchun joriy etilgan?" degan savolga shunday javoblar oldim: "Siz bo'lajak diplomatsiz: hozirdan o'rganishingiz kerak!", "Har xil oilaviy sharoitdagi talabalar bor. Bu kimnidir xafa qilishi yoki darsdan chalg'itishi mumkin".

Shuni aytish lozimki, men va universitetdagi tengdoshlarim hozirgi kunda talabamiz, yani diplomat, yurist yoki deputat emas! Ta'lim tizimimizni rivojlantirish bo'yicha ko'plab respublika talabalar diskussiyalarida bu mavzu ko'p marotaba ko'tarilgan va doimo negativ baholangan. Hozirgi kunda ta'lim olayotgan yangi avlod uchun noan'anaviy metodlar juda muhim. Hozirgi kun yoshlariga nimadirni taqiqlanishiga juda agressiv munosabat bildiradilar. Kiyim masalasiga kelsak, talabaga kiyinishni o'ziga qo'yib berishimiz kerak deb o'ylayman. Misol uchun, darsdan keyin men va kursdoshlarim salqin joyda gazonda o'tirib diskussiya olib bormoqchimiz. Biz klassik kiyimlardao'tirsak juda kulgili ko'rinamiz, shunday emasmi? Nafaqat buning uchun, muman olganda, klassik kiyimni kun davomida kiyib yurish juda noqulay. Bu fikrni har bitta talaba tasdiqlay oladi. Universitetlar erkin kiyinish huquqini joriy etsa, menimcha talabalar o'zini

yaxshiroq his eta boshlaydi va shu bilan bir qatorda, "Yarim klassik uslubida kiyinish universitet ma'muriyati tomonidan qo'llab-quvatlanadi (maslahat beriladi)" degan pozitsiyaga o'tishi, lekin buni majburiy qilmasligi, talabalarining eng oddiy huquqlari hamda mustaqil tanlovlariga universitet tomonidan ko'rsatilgan hurmat bo'lar edi deb o'ylayman.

Yangi zamon yoshlari uchun, erkinlik juda muhim. Ularni majburlash ikki avlodning kelishmovchiligi hamda ikki tomonning bir biriga bo'lgan hurmati yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Shunita'kidlash lozimki, diplomat, huquqshunos, deputat va boshqa mutaxassis bo'lganimizda biz bimalol klassik kiyimlarni kiyishga o'rganib ola olamiz. Kostyum kiyishni o'rganish universitetda o'qitilishi kerak bo'lgan qiyin hunar yoki fan emas. Har bir talaba ko'p vaqtini universitetda o'tkazadi. Uni qolibga solib qo'yib, robotga aylantirish yomon ta'sirga ega bo'lishi mumkin. Unga "самовыражаться", yani o'zligini ko'rsatish va kreativligini yo'qotmaslikka imkoniyat berishimiz va o'quv jarayonida qulay kiyimlarni kiyishga ruxsat berishimiz kerak deb o'ylayman.

Ikkinchi javobga esa, bugungi kun yoshlari boy bilan ham, kambag'al bilan ham bir xil muomalada bo'lishga o'rganganlar. Hech qaysi talaba dars paytida kursdoshining kiyimi haqida o'ylab o'tirmaydi (Agar dars qiziqarli bo'lsa albatta). Agar talabalar bu kabi fikrlamasa, biz ularni shu narsaga o'rgatishimiz kerak deb o'ylayman. Diniy libos kiyadigan talabaga ham bir kun qarashadi, ikki kun qarashadi va bu oddiy holga aylanadi. Buni "tolerantlik" deb atashadi. Undan ko'ra, universitet o'z logotipi tushirilgan sviterlar, galstuklar va boshqa mahsulotlarni sotishni yo'lga qo'ysa universitet imidji ham oshardi va byudjetga ham foyda bo'lar edi. Bunday mahsulotlarni tadbirlarda sovg'a sifatida berish ham mumkin. Aynan shunday kiyim mahsulotlarni universitetda majburiyatsiz rivojlantirishga harakat qilinishi kerak.

3.2. Talabalar kechga qolgan kursdoshini nega kechga qolganligini tinglash uchun pul to'lamaydi.

Nega ko'plab talabalar majburiy davomatdan noliydi? Aynan davomat sababli talabani urishish, ballarini pasaytirish, sessiyaga yo'l bermaslik va hattoki universitetdan chetlashtirish holatlari ta'lim tizimining juda katta xatosi mening nazaramda. Talabalar darsga majburligidan kelishi kerak emas. Universitet o'z talabalariga munosabatini o'zgartirib ularga yosh bolaga bo'lgandek muomala qilmasligi kerak meningcha. Majburiy davomat olib tashlansa, talabalarda universitetda qolishda qulayligi oshadi va o'qishga ko'proq qiziqirsan bo'ladi. Talabalar faqat majbur bo'lgan vaqtdan tashqari qo'shimcha vaqtini ham universitet hududida o'tkazishga harakat qiladi. Bizda, "Darsga kelib, davomatda ko'rinib, o'rnatilgan vaqtni o'tirib ketishim kerak, bo'lmasa "Nb" qo'yiladi" degan xayol o'rnashib qolgan. Aslida esa, "Bugun 4ta fandan ma'ruzalar bo'ladi. Bu fanlardagi mavzularni bilmayman, demak borib o'rganaman. Aslida, talabadarsdan keyin jamoaviy loyihamiz uchun kursdoshlarim bilan yig'ilaman" degan o'ylar bilan yurishi kerak. Ikkinchi turdagi talabani yana bir tomoni, u har qadamida vaqtini boshqarishni o'ylab yuradi ("time management"), bu esa yana bitta juda muhim ko'nikmalardan biridir.

Shu bilan bir qatorda, kichik bir savol bo'yicha talabalar o'rtasida yangi madaniyatni o'rnatishimiz kerak deb o'ylayman. Darsga kech qolgan talaba uzr so'rab, sabablarni tushintirib, bu bilan barchani ham vaqtini olishi, ham darsdan chalg'itishini o'rniga sekingina hech kimni e'tiboriga tushmasdan joyini egallashini joriy etishimiz kerak meningcha. Agar talaba darsga kech kelsa, bu fojia emas. U talaba kech qolgan bo'lsa, shunga baribir sababi bo'ladi. Kollejlarda ham, universitetlarda ham bu narsaga ko'plab o'qituvchilar tomonidan yo'l qo'yiladi va talabalarga zararini ko'rsatadi.

3.3. Yangi formatdagi tadbirlar va tanlovlar.

Yuqorida ta'kidlaganimdek, tanlov, tadbir va loyihalarning talabalarda ko'plab ko'nikmalar rivojlanishida juda kata ahamiyati bor. Shu sabab, talabalarni bu jarayonga maksimal jalb etish (majburlamasdan) juda muhim.

Bunday tadbirlarda talabalarni o'z xohishi bilan ishtirok etishga qiziqtirish kerak deb hisoblayman.

Qanday? Eski formatdan voz kechgan holda yangi formatdagi tadbirlarni tashkil etish. Oddiy misol: deylik, biz talabalarga tarixiy film ko'rsatmoqchimiz. Birinchi navbatda talabalar tomonidan tanlangan filmlarni ko'rsatishga harakat qilishimiz kerak. Albatta oddiy filmlar emas, balki talabalarga motivatsiya bo'la oladigan zamonaviy filmlar misol uchun. To'liq ingliz tilida tashkil etilishi ham mumkin. Bunday tadbirlarga talabalar shundoq ham keladi. Endi tarixiy filmlarga jalb etish uchun biz keyingi yo'lni qo'llashimiz mumkin. Bu metodni biz o'quv markazimizda ham qo'llar edik va o'quvchilarimiz yakshanba kunlari ham yetib kelishar edi. Ular tadbirdan keyin bepul pitsa va ichimliklar bilan bu filmni diskussiya qilishar edi. Albatta pitsa va yaxna ichimliklar tarixiy filmga to'g'ri kelmaydi, lekin boshqa narsalar o'ylab topish mumkin. Bunday tadbirlar o'quvchilarga juda to'la bo'lar edi. Universitet byudjet ajratmasa, buni talabalar tashkil eta oladi. Bu kinoga kinoteatrda o'xshatib chipta sotish mumkin va buning narxini eng minimal qilib belgilash mumkin. Bu talabalarining vaqtini ingliz tilidagi motivatsion filmlar bilan mazmunli tashkil etishning eng yaxshi yo'llaridan biri menimcha. Bunday tadbirlardan ko'plarini sanab o'tish mumkin. Faqat majburlashdan chetlanishimiz va aktual tadbirlarni tashkil etishimiz kerak menimcha.

Shu bilan bir qatorda, bu tadbirlarga yaxshiroq mablag' ajratishimiz kerak deb o'ylayman. Bir hafta davomida bor kuchi bilan harakat qilibmaqolalar tanlovida g'olib bo'lib, bor yo'g'i faxriy yorliq bilan "rag'batlantirilgan" talabadan hech kim motivatsiya olmaydi va keyingi tadbirlarda o'sha talabaning o'zi ham ishtirok etmasligi mumkin. Bunday tanlovlarning sonini kamaytirib sifatini yaxshilashga e'tibor qaratishimiz kerak deb o'ylayman. Shundagina, ko'plab talabalar bunday tanlovlarda ishtirok eta boshlaydilar va universitet bitiruvchilarining saviyasi oshadi.

IV. Ustozga e'tibor - talabaga e'tibor. Qanday qilib ustoz orqali oliy talimda yangi metodika kiritish mumkin?

Qisqa muddat bo'lsa ham ustoz bo'lib faoliyat olib borgan odam sifatida shuni aytaolamanki, talabaning yuqori natijalarga erishishida ustozning o'rni juda baland. Shu sababli o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun ustozlarga hambir nechta qulayliklar tashkil etilsa, nur ustiga a'lo nur bo'lar edi deb o'ylayman.

Men o'quv markazda ingliz tili o'qituvchisi bo'lib ishlayotganimda, menga bir narsa doim motivatsiya berib turar edi. Bizning jamoada yangi o'qituvchilar ham juda tez moslashib ketar edi. Ustozlarimiz doimo tetik bo'lib, yangi izlanishlarga o'z kuchlarini ayamasdilar.

Akademik jamoamiz (ustozlar) har oy birgalikda yig'iladi va ularga direktorimiz tomonidan motivatsion seminarlar o'tiladi. U yerda biz qanday natijalarga erishganimiz, kompaniyadagi o'zgarishlar, ustozlarning takliflari va yangi maqsadlarimiz do'stona muhitda muhokama qilinadi. Tadbir so'ngida "bir stakan salqin ichimlik va bir bo'lak pitsa ustida" ustozlar bir-birlari bilan tajriba almashishga kirishadilar. Bunday holatda yangi o'qituvchi ham, eng tajribali o'qituvchi ham, bir to'lqinda bo'lib qizg'in diskussiyalarga kirishadilar. O'ylaymanki, aynan shunday tadbirlar o'qituvchilarning ruhini ko'tarishiga ishonaman va o'z ishidan zavqlanadigan o'qituvchilardan biz talabalar ham zavqlanib bilim olamiz deb o'ylayman;

Universitetimizning dastlabki kunlarida bizda an'anaviy darslar boshlandi. Men har bitta darsga puxta tayyorlanib maksimal ball olishga harakat qila boshladim. Lekin tabiatdan men o'zimni gumanitar fanlarga qiziqqon va iste'dodli deb hisoblayman. Sezganingizdek, birinchi darsdanoq menda "matematika" fani bilan muammolar boshlandi. Birinchi juda qattiq tushkunlikka tusha boshladim. Bunday holatda nima qilishimni eslay boshladim va bir narsa esimga tushdi. Men o'quv markazida ingliz tilini o'rganayotganimda darslarni tushunmagan hollarim juda ko'p bo'lgan. Tabiatdan uyalchang bo'lmasamda, ustozga darsdan keyin borib "Ustoz, tushunmadim" deyishga tortinar edim. Uyulchang talabalarni aytmusak ham bo'ladi.

Bunday holda biz uchun ustoz yordamchisi doim tayyor turar edi (ko'pincha o'quv markazimizda yuqori natija ko'rsatib bizda ishlashga qolgan oldingi talabalar). Oldindan tushunmagan mavzuyimizni aytib markaz "Resepshin" (qabul) qo'shimcha individual darsga yozilar edik va aytilgan sanaga kelib tushunmagan mavzuni o'rganar edik. Ham bo'lajak o'qituvchi tajriba ortirib borar edi va kadrlar rezervi doimo ko'payib borar edi, ham talabalar programmani yanada yaxshiroq o'zlashtirar edi. Bunday o'qituvchi yordamchisi yana o'qituvchiga uyga vazifalarni tekshirishda yordam berar edi va yakshanba kunlari bepul interaktiv darslar o'tar edi. Afsuski bunday holat deyarli hech qaysi universitetda uchramaydi, shu sabab matematikani individual darslargaboshqa o'qituvchiga pul to'lab o'quv programmasiga yetib olishimga to'g'ri keldi. Agar har bir kafedrada hech bo'lmasa bittadan shunday o'qituvchi ish o'rinlarijoriy etilsa, tizimda yangi metodika bo'lar edi deb o'ylayman. Talabalar darslarga yanada qiziq boshlashi mumkin. Faqat davomat uchun keladigan talabalar soni deyarli qolmaydi deb o'ylayman. Bu metod talabaga rostan ham "O'zimga kerak-ku" degan fikrni singdirishi mumkin.

Yana bir tomoni, yildan yilga oliy ta'lim muassasalariga kvotalar oshib bormoqda. Bundan kelib chiqib ayta olamanki, yaqin orada universitetlarga ko'proq o'qituvchilar kerak bo'la boshlaydi. Bu usulda esa universitetda doim yangi o'qituvchilar rezervi bo'ladi. Ustoz yordamchilarini esa so'ngi bosqichdagi talabalar ichidan qidirish ham mumkin. Talabalarning yarimstavkali ishda ishlash huquqi bor. Shundan kelib chiqib, talabalarni 3-4 kursdan oylik asosida yoki kontrakt summasi granti bo'yicha ishga olishni yo'lga qo'yish yaxshi natija berishi mumkin deb o'ylayman.

V. Xulosa

Xulosa qilib shuni ayta olamanki, yangi zamon yangi talablarni o'rnatdi. Hozirgi kundagi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarda nazariy bilimlar bilan bir qatorda ham amaliy bilimlarni, ham ko'nikmalarni rivojlantirishga kata ehtiyoj paydo bo'ldi. Yangi davr keldi! Aynan hozir, mana shu kichik muammolar bo'yicha tezkor choralarni ko'ra bilsak, yangi zamon bilan hamnafas bo'la olamiz va yaqin kelajakda o'zbek mutaxassislarini dunyo miqyosida tan olinishiga erishamiz.

Ishlatilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni;
2. O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risidagi qarori
3. O'zbekiton Respublikasi Vazirlar Mahkamasining pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risidagi qarori
<https://www.lex.uz/docs/-973504>
4. <http://info.ziyonet.uz/uz/post/view/education/common>